

Oriental Journal of Education



MEANS OF FORMING ECOLOGICAL EDUCATION AND UPBRINGING

Umida Khon Gulomidinova Abdullayeva*Lecturer at Fergana State University**Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences**Fergana, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: professional-pedagogical activity, integrative, corporate, national, historical, technological, competence, chemistry, ecology, biosphere, healthy lifestyle, ecological communication, pedagogical process.

Abstract: This article examines the theoretical and pedagogical foundations of ecological education and upbringing, as well as modern forms, methods, and tools for preparing future chemistry teachers to implement ecological education and upbringing.

Received: 23.12.25**Accepted:** 24.12.25**Published:** 25.12.25

EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYANI SHAKLLANTIRISH VOSITALARI

Umida Xon G'ulomidinova Abdullayeva*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi**pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)**Farg'ona, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: kasbiy-pedagogik faoliyat, integrativ, korporativ, milliy, tarixiy, texnologik, kompetensiya kimyo, ekologiya, biosfera, sog'lom turmush tarzi, ekologik muloqot, pedagogik jarayon.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ekologik ta'lim va tarbiyaning nazariy-pedagogik asoslari, bo'lajak kimyo o'qituvchilarining ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirishga tayyorlashning zamonaviy shakl, usul va vositalari o'rganilgan.

СРЕДСТВА ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Умидахон Гуломидиновна Абдуллаева*Преподаватель Ферганского государственного университета,**доктор философии (PhD) по педагогическим наукам**Фергана, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: профессионально-педагогическая деятельность,

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретико-педагогические

интегративный, корпоративный, основы экологического образования и
национальный, исторический, воспитания, а также современные формы,
технологический, компетентность, химия, методы и средства подготовки будущих
экология, биосфера, здоровый образ жизни, учителей химии к реализации экологического
экологическое общение, педагогический образования и воспитания.
процесс.

Kirish. Dunyoning rivojlangan ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida kimyo fanini o'qitish sifatini yaxshilash, ta'lim jarayoniga innovatsion va axborot texnologiyalarni tatbiq etish, integratsiyalash, aralash ta'lim texnologiyasi imkoniyatlaridan foydalanish, talabalarning aqliy salohiyati, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodik ta'minotni yaratishga qaratilgan samarali tadqiqotlar olib borilmoqda. Mie University(Yaponiya), Albert-Ludwigs-University (Germaniya), Gomal Universite (Pokiston), Kimyo texnologiya instituti (Rossiya), Azarbayjan Davlat Universiteti olimlari tomonidan kimyo fanini innovatsion va axborot texnologiya vositalari asosida o'qitish jarayonini takomillashtirish, nazariy-metodologik va uslubiy asoslariga oid ilmiy ishlanmalarni ta'lim jarayonida qo'llashni tavsiya qilmoqdalar. Bu esa global ekologik muammolar sharoitida bo'lajak kimyo fani o'qituvchilarini kasbiy bilim va ko'nikmlarini shakllantirish bilan birga ekologik ta'lim-tarbiyaga tayyorlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga yangicha ehtiyojlarni yuzaga keltirmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ekologik ta'lim nima va u nimaga xizmat qiladi? O'zbekistonning taraqqiyot yo'lida ekologik muammolarni bartaraf etish, ekologik madaniyat va mas'uliyatni shakllantirish, ekologik axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangani ko'rsatilgan. Shu asosda talabalarda ekologik kompetensiyalarni rivojlantirish zarurati asoslab berilgan. Ekologik ta'lim - bu kishilarga tabiat, uning holati va muhofazasi haqida ilmiy asoslangan bilimlarni berish, ularni atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatda bo'lishga o'rgatish tizimidir. Bu ta'lim turi orqali inson o'zining tabiat bilan uzviy bog'liqligini tushunadi va ekologik muammolarga nisbatan befarq bo'lmaydi. Ekologik ta'lim quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- Aholi, ayniqsa yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish;
- Atrof-muhitni muhofaza qilishga doir huquqiy va ma'naviy bilimlarni singdirish;
- Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish;
- Odamlarda ekologik mas'uliyat va fuqarolik burchini mustahkamlash.

Ekologik tarbiya va uning ijtimoiy ahamiyati. Ekologik tarbiya - bu o'zida shaxsiy mas'uliyat, ekologik qadriyatlar, tabiatga hurmat va unga zarar yetkazmaslik prinsiplari singdirilgan tarbiya tizimidir. Ekologik tarbiya nafaqat maktabda yoki universitetda, balki oilada, ommaviy axborot vositalari orqali, nodavlat tashkilotlar faoliyatida ham amalga oshirilishi kerak. Chunki jamiyatning

barcha qatlamlarida ekologik madaniyatni yuksaltirmasdan turib ekologik muammolarni hal qilib bo'lmaydi.

Kimyo o'qituvchilarining maxsus kompetensiyalari: nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, ekologik tafakkur, mas'uliyatli yondashuv orqali shakllanishi zarurligi asoslab berilgan. Ayniqsa, ekologik ta'limda kimyo fanining alohida mavzulari orqali ekologik bilimni singdirish yondashuvi e'tiborga molikdir.

Tayyorlash jarayoni integratsiyalashgan, bosqichma-bosqich metodika asosida qurilgani, bunda o'quv muhitining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega komponentlariga alohida urg'u berilgani ta'kidlash lozim.

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini ekologik ta'lim-tarbiyaga tayyorlashda metodik asoslar muhim rol o'ynaydi. Ushbu metodikada asosan tadqiqot, amaliy ish, muammolarni hal qilish va tahlil qilish kabi usullardan foydalaniladi. Bunda bo'lajak o'qituvchilarning ekologik bilimlarini oshirish uchun interaktiv metodlardan foydalanish kerak. Misol uchun, simulyatsiyalarni, rolli o'yinlarni va jamoaviy muhokamalarni olib borish orqali talabalarining harakatlanishini ta'minlash mumkin. Didaktik asoslar esa ekologik ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishi uchun muhimdir. Didaktika prinsiplari (yashash muammolarining realligi, bilimlarning integratsiyasi, individualizatsiya) ekologik masalalarni o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ekologik bilimlarni berish jarayonida talabalarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kerak.

Natijalar va muhokama. Ekologik ta'limning mazmuni asosida kimyo fanining tabiat bilan aloqasini ochib beradi. Bu nafaqat kimyoviy moddalarning xosiyatlari balki ularning atrof-muhitga ta'siri haqidagi bilimlarni ham o'z ichiga oladi. Kimyo o'qituvchilari talabalarni atrof-muhit muhofazasi masalalarida faol ishtirok etishga undovchi ko'nikmalarni shakllantirishi kerak.

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini ekologik ta'lim-tarbiyaga tayyorlash - bu zamonaviy talablarga javob beruvchi muhim jarayondir. Bunda metodik va didaktik asoslarni to'g'ri tanlab olish orqali nafaqat ilm-fan sohasida yuqori malakali mutaxassislarni etishtiramiz, balki ularni jamiyatning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishga ham tayyorlaymiz. Shu tariqa ekologiya sohasida yosh avlodni tarbiyalash orqali barqaror rivojlanish yo'lida katta qadam tashlash mumkin bo'ladi.

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirishga tayyorlashda ta'lim mazmuni, o'quv reja, dasturlar, ta'lim shakli, metod, vositalari va darsliklar, elektron axborot ta'lim resurslari hamda boshqa didaktik materiallar, o'quv-metodik qo'llanmalar, laboratoriya jihozlari, ta'lim texnologiyalari va boshqalardan foydalanish asosida aniqlanadi. Talabalar kelgusida pedagogik faoliyatni amalga oshirish, nazariy bilimlar va psixomotorik harakatlar asosida amaliy ko'nikmalarni real sharoitda qo'llash maqsadida malakaviy pedagogik amaliyot tashkil etiladi. Bunda talabalar ta'lim jarayonida egallangan ekologiyaga oid kompetensiyalarni namoyon etish; pedagogik

faoliyati jarayonida – ekologik kompetentlikka ega, malakali kadrlarning tayyorlanganligini aniqlash va tahlil qilib borish uchun faoliyat monitoringi amalga oshirildi.

Ekologik ta'limiy-tarbiyaning axloqiy asoslarini tabiat bilan munosabatlardagi axloqiy normalar, qoidalar va urf-odatlar tashkil qiladi. Insoniyatning tabiatga antropotexnogen ta'siri jarayonida axloqning ikki jihati ko'zga tashlanadi. Birinchidan, inson tabiatni o'zining muayyan manfaatlari, ehtiyojlariga ko'ra, maqsadga muvofiq, o'zlashtirishi orqali o'z ijtimoiy-axloqiy mohiyatini namoyon qiladi. Ikkinchidan, inson tabiatni o'zgartirib, uning "ijtimoiylashtirishi" bilan axloqiy munosabatlarni ham takomillashtirib boradi. Uning tabiatga axloqiy munosabatidan qanoatlanish hissi, o'zining bir lahzalik instinktiv ehtiyojlarini qondirishdan iborat emas. Talabalarda ekologik kompetentlikni rivojlantirish orqali ularda o'zini anglashini tezlashtirish, shu bilan birga, tabiatni asrab-avaylash mas'uliyatini anglashni ham takomillashtirish hisoblanadi. Shunga qaramasdan, insonning tabiatga ekologik munosabatidagi iqtisodiy, siyosiy, axloqiy, estetik, huquqiy va boshqa jihatlarini har bir davrga qat'iy qolipdagi mezon bilan bog'lab qo'yish nazariy jihatdan xato hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilganda, bo'lajak kimyo o'qituvchilarini ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirishga tayyorlashda ekologik ta'lim-tarbiyani mushtaraklashtirish masalasi muhim ahamiyatga ega. Bunda nisbatan mustaqil ikki jarayon namoyon bo'ladi: ekologik tarbiyaga majmuaviy-tizimli yondoshish imkoniyati ta'limning turli sohalarini uyg'unlashtirish, muqobil yo'nalishlarini yagona maqsad asosida bog'lash zaruriyatidan kelib chiqadi; ekologik tarbiyaning turli shakllari, darajalari o'rtasidagi bog'lanishlarning tarixiy, mantiqiy izchilligani saqlab, ularning vositalari, uslublari o'rtasidagi bog'lanishlarni ham ta'minlash zarur. Boshqacha qilib aytganda, bu yo'nalishlarning mushtarak xarakteri, ularning bir-biriga munosabatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, ta'lim va tarbiyani tabiatni muhofaza qilish manfaatlari bilan bog'lash asosida umumiy mushtaraklik vujudga keladiki, aynan uning xususiyatlari ekologik kompetentlikni rivojlantirishning zaruriy shartiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B.454
- 2.Qo'ysinov O.A., Muslimov N.A., Abdullayeva Q., Gaipova N., Karimova N., Qodirov M. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. –T.: "Fan va texnologiya", 2013. - 128 b
- 3.Shomurotova Sh.X. Oliy ta'lim muassasalarida "Kompleks birikmalar kimyosi" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish. Diss. avtoref. Toshkent–2020. –45b.
- 4.Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovasion texnologiyalar. – Toshkent.: "Iste'dod jamg'armasi", 2008.